

30-Noyabr, 2025-yil

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING VOYAGA YETMAGANLARGA
SALBIY TA’SIR QILUVCHI IJTIMOYIY ILLATLARNI OLDINI OLISH
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI**

Jurayev Sardor

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV AKADEMIYASI KURSANTI

Kalit so‘zlar: *Profilaktika inspektori; oila-turmush munosabatlari; huquqbuzarliklar profilaktikasi; jamoat tuzilmalari; hamkorlik mexanizmlari; ijtimoiy himoya; mahalla tizimi; oilaviy zo‘ravonlikni oldini olish; profilaktik choralari; huquqiy madaniyat.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy illatlarning oldini olishdagi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha mavjud tizim, amaliyot va innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Unda huquqbuzarliklar, nazoratsizlik, giyohvandlik, internet orqali kirib kelayotgan xavfli axborotlar, agressiv xulq-atvor kabi omillarning kelib chiqish sabablari o‘rganiladi. Shuningdek, mahalla, ta’lim muassasalari, psixologik xizmatlar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, monitoring tizimini takomillashtirish, profilaktik ishlarining zamonaviy metodlarini joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari orqali voyaga yetmaganlar o‘rtasida ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarning oldini olish samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar asoslab beriladi.*

Ключевые слова: *Инспектор профилактики; семейно-бытовые отношения; профилактика правонарушений; общественные структуры; механизмы сотрудничества; социальная защита; система махалли; предотвращение домашнего насилия; профилактические меры; правовая культура.*

Аннотация: *В статье рассматриваются меры по совершенствованию деятельности инспектора профилактики в предупреждении негативных социальных явлений среди несовершеннолетних. Анализируются причины возникновения таких проблем, как правонарушения, безнадзорность, наркозависимость, влияние вредного интернет-контента и агрессивное поведение. Особое внимание уделено совершенствованию сотрудничества между махаллэй, образовательными учреждениями, психологическими службами и общественными организациями. В работе предложены практические рекомендации по модернизации методов профилактики, усилению межведомственного взаимодействия и внедрению современных подходов к мониторингу. Полученные выводы направлены на повышение эффективности предупреждения социально опасных действий среди несовершеннолетних.*

Keywords: *Prevention inspector; family-household relations; crime prevention; community structures; cooperation mechanisms; social protection; neighborhood committee; domestic violence prevention; preventive measures; legal awareness.*

Annotation: *This article explores measures to improve the effectiveness of prevention inspectors in counteracting negative social influences affecting minors. It analyzes the underlying causes of juvenile delinquency, neglect, drug abuse, exposure to harmful online content, and aggressive behavioral patterns. The study emphasizes the need to strengthen collaboration among community structures, educational institutions, psychological services, and civil society organizations. It also proposes recommendations for enhancing monitoring systems, implementing modern preventive methods, and introducing innovative, interdisciplinary approaches. The findings aim to increase the overall efficiency of preventing socially harmful behaviors among minors and improving the preventive framework.*

KIRISH

Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lib, undagi barqarorlik nafaqat farzandlarning har tomonlama kamoloti, balki umumiy ijtimoiy xavfsizlikning ta‘minlanishida ham alohida o‘rin tutadi. Oila-turmush doirasida sodir bo‘ladigan huquqbuzarliklar esa ushbu institutning barqarorligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Ayniqsa, zo‘ravonlik, oilaviy nizolar, iqtisodiy yoki psixologik bosim, majburiy cheklovlar kabi salbiy holatlar nafaqat bir oilaning ichki muammosi, balki kengroq ma‘noda jamiyat ongiga, ijtimoiy barqarorlikka, yosh avlodning tarbiyasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, bunday huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish zamonaviy huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarni erta bosqichda aniqlash va ularning oldini olishda profilaktika inspektorining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu toifadagi huquqbuzarliklar ko‘pincha yashirin shaklda sodir bo‘ladi, jabrlanuvchilar esa turli sabablarga ko‘ra (qo‘rquv, ijtimoiy bosim, iqtisodiy qaramlik va boshqalar) murojaat qilishdan tortinadi. Profilaktika inspektori esa mahalla hududidagi ijtimoiy vaziyatni chuqur o‘rganish, xavf guruhiga mansub oilalarni aniqlash, ularning ichki muammolarini bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlarni belgilash va eng muhimi, ularga kompleks yondashuv asosida yordam ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Biroq zamonaviy sharoitda profilaktika inspektorining yakka tartibdagi faoliyati yetarli samara bermasligi mumkin. Oilaviy muammolarning ko‘pchiligi murakkab ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, ularni hal etishda mahalla faollari, xotin-qizlar qo‘mitasi, yoshlar yetakchilari, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” bilan ishlovchi mutaxassislar, psixologlar, nuroniylar, diniy idoralar vakillari, ta‘lim muassasalari, tibbiyot xodimlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa jamoat tuzilmalari bilan yaqin hamkorlik zarur bo‘ladi. Ana shunday ko‘p sektorli yondashuv oilaviy huquqbuzarliklarning profilaktikasida barqaror natija beruvchi eng maqbul mexanizmdir. Jamoat tuzilmalari bilan

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Noyabr, 2025-yil

hamkorlikning yana bir muhim jihati shundaki, u profilaktika inspektorining ishini engillashtiradi, oila ichidagi muammolarni kengroq nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi va eng muhimi, huquqbuzarlik sodir bo‘lishidan oldin ularning oldini olishga xizmat qiladi. Bunday hamkorlik, masalan, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlash, ularga psixologik, huquqiy, moddiy yoki ma’rifiy ko‘mak berish, ajrimlar sonini kamaytirish, voyaga yetmaganlar tarbiyasiga e’tibor kuchaytirish kabi ko‘plab yo‘nalishlarda o‘z samarasini beradi. Bugungi kunda davlat siyosati ham oilani mustahkamlash, uning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, oilaviy nizolar va uy-ichidagi zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni jadallashtirgan. Xususan, “Mahalla” tizimini isloh qilish, ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari, oilaviy psixologiya markazlari faoliyatini kuchaytirish, profilaktika inspektorlarining vakolatlarini kengaytirish, tezkor ma’lumot almashinuvi tizimlarini yo‘lga qo‘yish kabi islohotlar bu yo‘nalishdagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etishda profilaktika inspektori va jamoat tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish nafaqat hududdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, balki jamiyatning kelajak avlodini sog‘lom ma’naviy muhitda voyaga yetkazish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqola aynan shu hamkorlikning mazmun-mohiyati, zaruriy mexanizmlari, takomillashtirish yo‘llari va amaliy ahamiyatini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Voyaga yetmaganlar jamiyatning eng himoyasiz qatlamlaridan biri bo‘lib, ular ijtimoiy illatlardan eng ko‘p zarar ko‘radigan guruh hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning salbiy ijtimoiy muhit, giyohvandlik, ijtimoiy tazyiq, internetdagi xavfli kontent, zo‘ravonlik va agressiv xulq-atvor kabi omillarga duchor bo‘lishi kundalik haqiqatga aylangan. Shu sababli profilaktika inspektorining vazifasi nafaqat voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish, balki ularni salbiy ta’sirlardan barvaqt himoya qilish, erta ogohlantirish va profilaktik chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirishdan iborat. Ushbu faoliyatning samaradorligi esa eng avvalo profilaktika inspektori va jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari o‘rtasidagi yaqin hamkorlikka bog‘liq. Profilaktika inspektorining asosiy vazifalaridan biri — xavf guruhidagi voyaga yetmaganlarni aniqlash va ularni salbiy omillardan himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Buning uchun mahalla, ta’lim muassasalari, tibbiyot va psixologik xizmatlar, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan muntazam hamkorlik o‘rnatish zarur. Mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, xotin-qizlar va yoshlar faollari, profilaktika kengashi a’zolari bilan olib boriladigan ishlar voyaga yetmaganlarning ijtimoiy muhitini doimiy kuzatish, muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Shu bilan birga, maktablar, kollejlari va boshqa ta’lim muassasalari bilan o‘zaro aloqalar voyaga yetmaganlarning xulq-atvori, darslarda ishtiroki va ularning psixologik holatini monitoring qilish imkonini beradi. Salbiy ijtimoiy illatlarni oldini olishda psixologik va ijtimoiy yordamning roli katta. Profilaktika inspektori psixologlar bilan birgalikda voyaga yetmaganlar bilan individual ishlash, ularni noto‘g‘ri

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Noyabr, 2025-yil

xatti-harakatlardan ogohlantirish va ijtimoiy muhitga moslashtirish choralari ko‘radi. Masalan, oilaviy nizolar, ruhiy bosim, oiladagi yetarlicha e‘tibor yetishmasligi yoki o‘quv muhitidagi ijtimoiy zo‘ravonlik belgilari aniqlansa, inspektor va psixologlar birgalikda shaxsga mos reja ishlab chiqadi, maslahat va zarur ko‘makni taqdim etadi. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi orqali xavfli omillardan uzoqlashtirish, ularni sog‘lom ijtimoiy faoliyatga jalb qilish, turli madaniy va sport tadbirlariga integratsiya qilish ham samarali profilaktika choralari sifatida namoyon bo‘ladi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining roli ham katta ahamiyatga ega. Xotin-qizlar, yoshlar va oilalar bilan ishlovchi NNTlar orqali malakali psixologlar, mediatorlar va advokatlar yordamida voyaga yetmaganlarni huquqiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash mumkin. Profilaktika inspektori ushbu tashkilotlar bilan birgalikda monitoring, maslahat va tezkor yordam mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish orqali salbiy ta’sirlarni kamaytirishga erishadi. Shu bilan birga, diniy-ma’rifiy tashkilotlar bilan hamkorlik voyaga yetmaganlarning ma’naviy tarbiyasini mustahkamlash va salbiy omillarning oldini olishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, profilaktika inspektori zamonaviy texnologiyalar va axborot resurslaridan foydalanib, voyaga yetmaganlar o‘rtasida yuzaga keladigan xavfli vaziyatlarni tezkor aniqlash va oldini olish tizimini yo‘lga qo‘yishi kerak. Elektron monitoring, ma’lumotlar bazasi, xavfli xatti-harakatlarni dastlabki bosqichda qayd etish va tegishli chora-tadbirlarni belgilash tizimi samaradorlikni oshiradi.

XULOSA

Voyaga yetmaganlar ijtimoiy muhitning eng himoyasiz qatlamlaridan biri bo‘lib, ularning salbiy ta’sirlardan himoya qilinishi zamonaviy jamiyatda dolzarb masalalardan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, voyaga yetmaganlar o‘rtasida salbiy ijtimoiy illatlar — oilaviy nizolar, zo‘ravonlik, internetdagi xavfli kontent, giyohvandlik va agressiv xulq-atvor kabi omillar ko‘p uchraydi. Ushbu illatlar nafaqat individual shaxsning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, profilaktika inspektorining faoliyati bu illatlarning oldini olishda markaziy ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, profilaktika inspektori faqat ma’muriy choralari yoki jarimalarga tayanib voyaga yetmaganlarni salbiy ta’sirlardan himoya qila olmaydi. Samarali profilaktika faqat kompleks va tizimli yondashuv orqali amalga oshiriladi. Bunda jamoat tuzilmalari bilan hamkorlik, mahalla institutining faoliyati, ta’lim muassasalari, psixologik xizmatlar, nodavlat-notijorat tashkilotlar va diniy-ma’rifiy idoralarning qo‘shgan hissasi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu hamkorlik voyaga yetmaganlarni ijtimoiy xavfli muhitdan uzoqlashtirish, ularning ruhiy va ijtimoiy muhitini sog‘lomlashtirish hamda salbiy xatti-harakatlarni oldini olishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va axborot resurslaridan samarali foydalanish profilaktika samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Elektron monitoring tizimlari, xavf guruhi bo‘yicha ma’lumotlar bazasi, tezkor ogohlantirish va maslahat mexanizmlari voyaga yetmaganlarning xavfli vaziyatlardan himoya qilinishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, individual ishlash, shaxsga mos reja ishlab chiqish, psixologik va ijtimoiy

30-Noyabr, 2025-yil

yordam ko‘rsatish kabi amaliy choralar ularning xulq-atvorini barqarorlashtirish va ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta‘minlashga yordam beradi. Oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi integratsiyalashgan tizim voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish, salbiy ta’sirlarni kamaytirish va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Profilaktika inspektorining faoliyati shuningdek oilalarning barqarorligini ta‘minlash, nizolarni bartaraf etish va voyaga yetmaganlarning salbiy xatti-harakatlarga moyilligini kamaytirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda jamoat tuzilmalari bilan doimiy axborot almashinuvi, nazorat va maslahat tizimi samaradorlikni oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlarga salbiy ta’sir qiluvchi ijtimoiy illatlarni oldini olish faoliyati tizimli, kompleks va samarali hamkorlikni talab qiladi. Profilaktika inspektorining jamoat tuzilmalari bilan uzviy ishlashi, zamonaviy texnologiyalar va psixologik-ijtimoiy yordam vositalarini qo‘llashi orqali nafaqat voyaga yetmaganlarning xavfsizligini ta‘minlash, balki jamiyatning barqarorligi, ijtimoiy adolat va kelajak avlodning sog‘lom ijtimoiy muhitda tarbiyalanishini kafolatlash mumkin. Ushbu tizimli yondashuv voyaga yetmaganlarning xavfsizligi va huquqlarini himoya qilishda muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, profilaktika tizimini yangi samarali darajaga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Crime Prevention and Criminal Justice, Vienna, 2019.
2. European Crime Prevention Network (EUCPN). Effective Practices in Preventive Policing, Brussels, 2020.
3. Тарасов, В.А. Психология девиантного поведения и профилактика, Москва, 2017.
4. National Institute of Justice (NIJ). Juvenile Justice and Community Supervision Practices, Washington D.C., 2018.